
PhD, dotsent Jasur RAZZAQOV

Toshkent moliya instituti

BIZNES LOYIHALARINI SINDIKATLASHGAN KREDITLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Mazkur maqolada biznes loyihalarini sindikatlashgan kreditlar orqali moliyalashtirish masalalarini o'rganishda turli xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlariga e'tibor qaratilgan. Mazkur jarayonda sindikatlashgan kreditlash amaliyotidagi asosiy ishtirokchilar va ularning vazifalari, sindikatlashgan kreditlarning ikkilamchi bozori segmentlari, sindikatlashgan kreditlash amaliyotini samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: biznes loyihasi, sindikatlashgan kredit, biznes loyihalarini moliyalashtirish, yetakchi bank, ishtirokchi bank, bank sindikati, investitsiya loyihasi.

ISSUES OF FINANCING BUSINESS PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS

This article focuses on the researches of various foreign and domestic scientists in the study of the financing issues of business projects through syndicated loans. In this process, the main participants in the practice of syndicated lending and their tasks, the segments of the secondary market of syndicated loans, and the necessary measures for the effective organization of the practice of syndicated lending are analyzed. Relevant conclusions and proposals are formed based on the conducted research.

Keywords: business project, syndicated loan, financing of business projects, leading bank, participating bank, bank syndicate, investment project.

Kirish

Jahon iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlari kuchayishi sharoitida manfaatlar to'qnashuvi va raqobat tobora avj olib borayotgan davrda xalqaro kapitalga bo'lgan talab yanada oshmoqda. Hozirgi kunda tijorat banklari uchun xalqaro qarzlarni olishning eng keng tarqalgan turlaridan biri sindikatlashgan kreditlashdir. Yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlardan foydalanish eng qulay va har tomonlama manfaatli moliyalashtirish usuli hisoblanadi. Dunyo tajribasidan ma'lumki, ko'plab yirik investitsiya loyihalari sindikatlashgan kreditlar hisobiga muvaffaqiyatli moliyalashtirilgan.

Rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklar tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbasi sifatida sindikatlashgan kreditlar berish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida investitsion loyihalarda risklarni baholash, sindikatlashgan kreditlar asosida moliyalashtirish amaliyotini samarali tashkil qilish hamda makrodarajada barqarorlikka erishish, investitsiya loyihalarini sindikatlashgan kreditlar hisobiga moliyalashtirishda dasturiy ta'minotlarni qo'llash kabi masalalar tadqiq qilinmoqda.

O'zbekistonda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning xalqaro amaliyotdagi samarali usullaridan hisoblangan sindikatlashgan kreditlash usulini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Banklarning uzoq muddatli barqaror resurslariga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi, ularning xalqaro moliya institutlari va iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar banklari bilan hamkorligi yetarli darajada emasligi, tijorat banklarini sinditsiyali kreditlashda ishtirok etish uchun jahon tajribasi asosida faoliyat mexanizmini tashkil qiluvchi milliy me'yor va talablarning xalqaro andozalarga mos emasligi, tijorat banklarida risklarni boshqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, sindikatlashgan kreditlashni rag'batlantiruvchi infratuzilmaning to'liq shakllantirilmaganligi kabi bir qator omillar biznes loyihalarini sindikatlashgan kreditlar orqali moliyalashtirish masalalarini tadqiq qilishning dolzarbligini ifodalaydi.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda sindikatlashgan kreditlar tushunchasi keng uchraydi. Rossiyalik olim professor A.G. Gryaznovaning umumiy tahriri ostida chiqarilgan adabiyotda "sindikatlashgan kreditlar bu bitta qarzdorga ikki yoki undan ko'proq banklar tomonidan beriladigan kreditlardir" [1] deb ta'rif berilgan.

C. Pass, D. Lowes, A. Pendleton, L. Chadwicklarning fikricha, "sindikatlashgan kreditlar kreditning shunday shakli, bunda ikki yoki undan ko'p banklar (banklar sindikati) tomonidan qarzdor bilan maqsadlilik, muddatlilik, ta'minlanganlik, qaytarishlilik hamda hujjatlarda kelishilgan shartlar asosida kreditlash shartnomasi tuziladi" [2].

J. Armstrong sindikatlashgan kreditlarga quyidagicha ta'rif berishni taklif etadi: "sindikatlashgan kreditlar bu kreditlashning shunday instrumentiki, ya'ni moliya bozorining ishtirokchilariga kredit risklarini to'g'ri prognoz qilish imkoniyatini beradi" [3].

Sindikatsiya (syndicate) o'zaro shartnomalar asosida turli mamlakatlardagi banklarning yirik miqdordagi summada kredit berish maqsadida o'zaro hamkorligidir. Sindikatning vujudga kelishida turli xil sabablar, masalan, qarzdor murojaat etgan bankda bankning mablag'lari yetishmasligi yoki bankning kredit riskini boshqa

muassasalar bilan o'zaro bo'lishishi va boshqalar muhim rol o'ynashi mumkin. Sindikatda ikkitadan 30-40 tagacha turli mamlakatlar kredit muassasalari ishtirok etishi mumkin. Sindikat a'zolari o'rtasidagi munosabatlar sindikat kelishuvi (syndicate agreement), yirik kredit berish maqsadida sindikat ishtirokchilarini birlashtiruvchi yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat orqali tartibga solinadi. Sindikatlashgan kredit a'zolari ichida asosiy o'rinni sindikat tashkilotchisi (syndicate arranger) egallaydi. Sindikatda yana agent-bank ham muhim rol o'ynaydi. Ko'p hollarda agent-bank sifatida sindikat tashkilotchisining o'zi namoyon bo'ladi [4].

M.V. Dovgyallo "sindikatlashgan kredit bu kreditning shunday turi bo'lib, kredit bitimida ikkitadan kam bo'lmagan banklar ishtirok etishi va ular sindikatlashgan kreditlashning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan umumhujjatlar asosida kreditning o'zlaridan so'ralgan qismini moliyalashtirishi, kreditning o'zini esa maxsus agent tomonidan boshqarilishi belgilangan" [5], deya ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan D.G'.G'ozibekov sindikatlashgan kreditlashni loyihaviy moliyalashtirish deya talqin etadi va uni investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmi sifatida e'tirof etadi [6].

Mamlakatimizning yana bir iqtisodchi olimi N.G'.Karimov sindikatlashgan kreditlarni bir necha banklar tomonidan yirik investitsiya loyihalarini birgalikda kreditlash va bunda yirik investitsiya loyihasi - umumiy qiymati tijorat banklarining birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshadigan investitsiya loyihasi uchun ajratiladigan kreditlar ekanligini ta'kidlab o'tgan [7].


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, biznes loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlarning o'ziga xos jihatlari, ishtirokchilari hamda mazkur jarayonda risklarni boshqarish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Biznes loyihalarini sindikatlashgan kreditlar orqali moliyalashtirish masalalarini tadqiq qilishda ilmiy abstraksiyalash, tanlanma tahlil, kuzatish usuli, analiz, deduksiya kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahalil va natijalar


Sindikatlashgan kreditlash amaliyoti xalqaro amaliyotda keng tarqalgan amaliyotlardan biri bo'lishiga qaramasdan milliy amaliyotda hali yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Shu boisdan, avvalo, mazkur amaliyotdagi asosiy tushunchalarning mazmuni va ishtirokchilarning vazifalariga to'xtalib o'tamiz (1-rasm).



1-rasm. Sindikatlashgan kreditlash amaliyotidagi asosiy tushunchalar¹

Shuni ta'kidlash kerakki, sindikatlashgan kreditlar ikkilamchi bozorining negizini, avvalombor, yirik korporativ qarz oluvchilarning kreditlar ulushlari tashkil etadi. Sindikatlashgan kreditlar ikkilamchi bozori uchta segmentlardan tarkib topgan (2-rasm).

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan
International Journal of Finance and Digitalization
Email: ijfd uz@gmail.com




2-rasm. Sindikatlashgan kreditlar ikkilamchi bozori segmentlari²

Mazkur segmentlarda ikkilamchi bozorning ishtirokchilari sifatida market-meykerlar (market-makers), faol treyderlar (active traders) va ixtiyoriy sotuvchilar yoki investorlar (occasional sellers / investors)ni ta'kidlash mumkin.

Sindikatlashgan kreditlashda likvidlilikni yo'qotish riski ham sindikat ishtirokchilari uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki likvidlilik riski to'g'ridan to'g'ri kredit riski bilan bog'liq, sababi bankning to'lovga qobilligini pasaytiradi. Kredit riski barcha banklar uchun asosiy risk turi hisoblanadi, shuning uchun ham kredit riskini pasaytiruvchi bir qator me'yorlar joriy etilgan. Sindikatlashgan kreditlashda ishtirok etuvchi banklar uchun ushbu me'yorlar kredit riskini boshqarishning boshqa usullari bilan bir xil bo'lib, unga qat'iy rioya etishni talab etadi. Demak, sindikatlashgan kreditlashda risklarni boshqarish ko'p hollarda a'naviy kreditlash risklarini boshqarish tizimi bilan deyarli bir xil bo'lsada, lekin ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Asosiy o'ziga xos xususiyat bu sindikatlashgan kreditlashni tashkil etish va ishtirokchilarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi. Shuningdek, sindikatlashgan kreditlashda risklarni boshqarishning alohida usullari ham mavjud bo'lib, bu usullar yirik uzoq muddatli ikki tomonlama tuziladigan shartnomalarda kredit bo'yicha bozor foiz stavkalarini qo'llash, multivalyuta kelishuvlaridan foydalanish, kredit berish mexanizmlari (misol uchun o'z vaqtida to'lab beriladigan transhlar)ni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin.

² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan
International Journal of Finance and Digitalization
Email: ijfd.uz@gmail.com



3-rasm. Sindikatlashgan kreditlash amaliyotini samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar³

Tijorat banklari uchun sindikatlashgan kreditlashni tashkil etish jarayoni bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish sindikatlashgan kreditlarni jalb qilishni tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan yagona qoida va talablarni shakllantirish, hujjatlar aylanmasini birxillashtirish va standartlashtirish, sindikatlashgan kreditni jalb qilishni tashkil etishda bankning tarkibiy bo'linmalaridagi xodimlarning ishlash tartibi va o'zaro munosabatlar tartibini belgilashga qaratilgan (3-rasm).

1-jadval

Tijorat banklarida sindikatlashgan kreditlashni tashkil etish jarayoni modeli⁴

№	Kirish	Ishning nomi	Ishning qisqacha izohi	Ijrochi	Chiqish
1.	Rahbariyatning sindikatlashgan kreditni jalb qilish to'g'risidagi qarori	Sindikatlashgan kredit parametrlarini aniqlash	Bank bilan sindikatlashgan kreditning dastlabki parametrlarini aniqlash va kelishtirish	Xalqaro biznes va moliyaviy institutlar departamenti (XB va MID)	Sindikatlashgan kreditning dastlabki parametrlari
2.	Sindikatlashgan kreditning dastlabki parametrlari	Mandat xatini kelishtirish va imzolash	1.Mandat xatining matnini: Yuridik departamenti; Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha boshqarmalar orqali kelishtirish	Xalqaro biznes va moliyaviy institutlar departamenti (XB va MID)	Mandat xati

³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan

⁴ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

			2.Mandat xatini imzolash.		
3.	Mandat xati	Axborot memorandumini tuzish	1.Axborot memorandumini tayyorlash uchun axborot berish maqsadida Bankning bo'linmalariga talabnomani yuborish. 2.Tashkilotchi bilan birgalikda Axborot memorandumini tuzish.	Xalqaro biznes va moliyaviy institutlar departamenti (XB va MID)	Axborot memorandumini
		Kredit shartnomasini kelishtirish va imzolash	1.Kredit shartnomasi matnini: Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish boshqarmasi va Moliyaviy operatsiyalarni rasmiylashtirish boshqarmalari bilan kelishtirish 2.Kredit shartnomasini imzolash.	Xalqaro biznes va moliyaviy institutlar departamenti (XB va MID)	Kredit shartnomasi
		Tombstone maketini tayyorlash	XB va MID topshirig'i bo'yicha bitimning har bir ishtirokchisi uchun Tombstone maketi tayyorlanadi.	Marketing va reklama boshqarmasi	Tombstone maketi
		Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasidan axborotni so'rab olish	XB va MID kredit shartnomasi amal qilish paytida Buxgalterlik hisobini va hisobotini yuritish bo'yicha boshqarmadan tegishli moliyaviy axborotni so'rab oladi	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarma	Kredit shartnomasiga muvofiq holda chet el banklariga taqdim etilayotgan hujjatlar
		Sinditsiyalan gan kreditni to'lab tugatish	Bank-agentning foydasiga pul mablag'larni o'tkazish	KMB	

Xalqaro amaliyotni o'rganish natijasida tijorat banklarida sindikatlashgan kreditlashni tashkil etish jarayoni modeli ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur model xalqaro investitsion kreditlarni jalb etish va ulardan foydalanish jarayonida kredit va valyuta risklarini boshqarish tizimi takomillashmaganligi investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligiga nisbatan kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltirishini ko'rsatadi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar asosida biznes loyihalarni sindikatlashgan kreditlar orqali moliyalashtirish masalalarini tadqiq qilishda quyidagi xulosalar shakllantirilgan:

1. Mamlakatimizda sindikatlashgan kreditlash takliflari bo'yicha yagona platforma yaratish va ushbu platformaning barcha banklar uchun ham, tadbirkorlar uchun ham ochiq va shaffof bo'lishi, uning yagona bazasi mavjud bo'lishi sindikatlashgan kreditlash bozorini shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi.

2. Sindikatlashgan kreditlashni amalga oshiruvchi tashkilotchi bank va sherik-banklar o'rtasida yagona integratsiyalashgan kommunikatsiya (ma'lumot almashish) tizimini tashkil etish banklararo muloqatni tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

3. Sindikatlashgan kreditlashni amalga oshiruvchi banklarda kreditlarning muammoga aylanish belgilarini oldindan aniqlashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish banklarning risklarini samarali boshqarishga olib keladi va muammoli kreditlar hajmini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Финансово-кредитный энциклопедический словарь, под редакцией коллектива авторов под общей редакцией д.э.н. проф.А.Г.Грязновой, М.: "Финансы и статистика", 2002, 886 с.

2. C. Pass, D. Lowes, A. Pendleton, L. Chadwick. Collins Dictionary of Business- Harper Collins Publishers, 3rd Edition, 2000.- P.430

3. Armstrong J. The syndicated Loan Market: Dewelopments is in the North American Context.// Bank of Kanada Working Paper 2003-15, June 2003.

4. Банковское дело. Под ред. доктора экономических наук, профессора А.М.Тавасиева,. – М.: 2001. стр. 605.

5. Довгялло М.В., Синдицированное кредитование, -М.: Фонд "Институт экономики города", 2000-с.6.

6. Д.Ғ.Ғозибеков Инвестицияларни молиялаштириш масалалари .- Т:Молия нашриёти,2003 йил 332 бет

7. Н.Ғ.Каримов. Иктисодий интеграциялашув шароитида инвестиция фаолиятини молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш масалалари.Т.:Фан ва технология нашриёти, 2007 йил 137 бет.